



THE LEGAL NATURE OF THE CONSTITUTIONAL PREAMBLE

Choriyev Ulug'bek Rustamovich

Tashkent State University of Law

Faculty of Public Law, 3rd-year student

E-mail: Ulugbekc824@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17934391>

ARTICLE INFO

Received: 08th December 2025

Accepted: 14th December 2025

Online: 15th December 2025

KEYWORDS

Preamble, legal nature, people's declaration, constitutional identity, archetype, quasi-preamble.

ABSTRACT

This article focuses on analyzing the legal nature of the constitutional preamble. It explores the historical and etymological origins of the term "preamble," its position within the constitutional structure, its legal characteristics, and its essence as an expression of the people's will. The article examines the content of the preamble of the Constitution of the Republic of Uzbekistan, explaining its legal force, normative significance, and ideological functions. In addition, the views of foreign legal scholars such as Peter Häberle, David S. Law, Liav Orgad, Tom Ginsburg, Nick Foti, and Daniel Rockmore on various theoretical approaches to constitutional preambles are analyzed. Based on their perspectives, the legal-philosophical, ideological, and political functions of the preamble are discussed. The paper also highlights the legal requirements for the preamble stipulated in Uzbek legislation and their practical significance. The results of the research show that the preamble is not merely a symbolic or political statement but should be recognized as a legal-philosophical institution that defines the spirit, purpose, and direction of the Constitution.

ПРАВОВАЯ ПРИРОДА ПРЕАМБУЛЫ КОНСТИТУЦИИ

Чориев Улугбек Рустамович

Ташкентский государственный юридический университет

Факультет публичного права, студент 3 курса

Эл. почта: Ulugbekc824@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17934391>

ARTICLE INFO

Received: 08th December 2025

Accepted: 14th December 2025

Online: 15th December 2025

KEYWORDS

ABSTRACT

В данной статье особое внимание уделено анализу правовой природы преамбулы Конституции. Рассматриваются историко-



Преамбула, правовая
природа, народное заявление,
конституционная
идентичность, архетип,
квази-преамбула.

этимологические корни термина «преамбула», её место в конституционной структуре, правовые особенности, а также её сущность как выражения народной воли. В статье анализируется содержание преамбулы Конституции Республики Узбекистан, раскрываются её юридическая сила, нормативное значение и идеологические функции. Кроме того, исследуются теоретические подходы к преамбуле, предложенные зарубежными юристами — Петером Хэберле, Дэвидом С. Ло, Лиавом Органом, Томом Гинсбургом, Ником Фоти и Даниэлем Рокмором. На основе их взглядов рассматриваются правофилософские, идеологические и политические функции преамбулы. Также в работе показаны юридические требования, установленные узбекским законодательством к преамбуле, и их практическое значение. Результаты исследования показывают, что преамбула является не просто символическим или политическим заявлением, а должна рассматриваться как правофилософский институт, определяющий дух, цель и направление Конституции.

KONSTITUTSIYA PREAMBULASINING HUQUQIY TABIATI

Choriyev Ulug'bek Rustamovich

Toshkent davlat yuridik universiteti

Ommaviy huquq fakulteti 3-kurs talabasi

e-mail: Ulugbekc824@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17934391>

ARTICLE INFO

Received: 08th December 2025

Accepted: 14th December 2025

Online: 15th December 2025

KEYWORDS

Преамбула (muqaddima),
huquqiy tabiat, xalq bayonoti,
konstitutsion identitet, arxetip,
kvazi-preambula.

ABSTRACT

Ushbu maqolada Konstitutsiya preambulasining huquqiy tabiatini tahlil qilishga alohida e'tibor qaratilgan. Preambula tushunchasining tarixiy-etimologik ildizlari, uning konstitutsion tuzilmadagi o'rni, huquqiy xususiyatlari hamda xalq irodasining ifodasi sifatidagi mohiyati ilmiy jihatdan yoritiladi. Maqolada O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi muqaddimasi mazmuni tahlil qilinib, preambulaning huquqiy kuchi, normativ ahamiyati va ideologik vazifalari izohlanadi. Shu bilan birga, xorijiy



huquqshunoslar — Peter Häberle, David S. Law, Liav Orgad, Tom Ginsburg, Nick Foti va Daniel Rockmorelarning preambulaning turli nazariy yondashuvlariga oid qarashlari tahlil qilinadi. Ularning fikrlari asosida preambulaning huquqiy-falsafiy, ideologik va siyosiy funksiyalari o'rganiladi. Shuningdek, O'zbekiston qonunchiligida muqaddimaga nisbatan belgilangan yuridik talablar va ularning amaliy ahamiyati ko'rsatib o'tiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, preambula nafaqat ramziy yoki siyosiy bayonot, balki Konstitutsiyaning ruhini, maqsadini va huquqiy yo'nalishini belgilovchi huquqiy-falsafiy institut sifatida e'tirof etilishi zarur.

KIRISH

Preambula hozirgi kunda har bir zamonaviy demokratik tUSDagi Konstitutsiyalarga mos tarkibiy qismdir. Hozirda preambula tushunchasini shunchaki Konstitutsiyaning kirish qismi sifatida ko'rib, uning tub mohiyati ochilmasdan qolib ketmoqda. Aslida esa preambula tushunchasi va uning huquqiy tabiatini o'rganish ancha murakkab masala hisoblanadi. Afsuski milliy huquqiy tadqiqotlarimizda bu masalani olib chiqilishini kamdan kam ko'ramiz. Bunga asosiy sabab sifatida esa mavzuning dolzarbligiga berilayotgan baho yetarlicha emas degan qarashdamiz.

Aslida preambulaning huquqiy tabiatini o'rganish juda muhim masala deb ham hisoblaymiz. Chunki preambulada butun Konstitutsiyaning, normativ-huquqiy hujjatning va ayniqsa davlatning maqsadlari, g'oyalari mustahkamlanadi. Bundan tashqari, preambula bevosita xalq xohish-irodasi ham hisoblanishi ma'lum. Bunday muhim institutning yetarlicha tadqiq etilmasligi esa uning amaliy ahamiyatini tushunishimizda ham katta to'siq bo'lib xizmat qiladi.

METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotning maqsadi — Konstitutsiya preambulasining huquqiy tabiatini nazariy va amaliy jihatdan o'rganish, shuningdek, uning normativ mazmuni hamda konstitutsion tizimdagi o'rnini aniqlashdan iborat. Tadqiqot davomida muallif preambulaning huquqiy tabiatini chuqur tahlil asosida ochib berishni asosiy maqsad sifatida olgan.

Ushbu maqsadlarga erishish uchun ilmiy tadqiqotning qiyosiy-huquqiy, mantiqiy kabi metodlardan foydalanilgan. Qolaversa, ilmiy tadqiqot asosan doktrinal manbalar tahlilini va shu asosda preambulaning huquqiy tabiatlarini kengroq ochib berish usulida olib borilgan.

MUHOKAMA VA TAHLIL

Preambula tushunchasining huquqiy tabiatini bilishdan oldin uning etnik kelib chiqishi haqida biroz gaplashib olishimiz darkor. "Preambula" so'zi ingliz tilidagi *prologue, preface*, yoki *preliminary statement* (ya'ni kirish qismi, muqaddima,



dastlabki bayonot) ma'nolariga yaqin. Bu atama ilk bor XIV asr oxirida ishlatilgan bo'lib, qadimgi fransuz tilidagi *preambule* (XIII asr) va bevosita o'rta asr lotinchasidagi *preambulium* so'zidan olingan. Lotincha *praeambulus* "oldindan yuruvchi", "oldinda boruvchi" degan ma'noni bildiradi. Bu esa ikki so'zdan tarkib topgan: *prae* — "oldin, avval"; *ambulare* — "yurmoq, harakatlanmoq". Shunday qilib, *preambula* aslida "oldinda yuruvchi so'z" yoki "asosiy matndan oldingi kirish qismi" degan ma'noni bildiradi [1]. Preambula haqida o'zbek yuridik adabiyotlarida ham ayrim ma'lumotlar keltirilgan. Ular orqali preambula haqida umumiy qarashlarimizni biroz aniqlashtirib olishimiz mumkin. Quyidagilar Konstitutsiyamizning muqaddimasida belgilangan: - inson huquq va erkinliklariga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga, davlat suvereniteti prinsiplariga sodiqlikning e'lon qilinishi; - demokratiya, erkinlik va tinchlik, ijtimoiy adolat va birdamlik g'oyalariga sadoqatni namoyon etish; - hozirgi va kelajak avlodlar oldida yuksak mas'uliyatni anglash hamda muqaddimada qayd qilingan boshqa maqsad, vazifalar Konstitutsiyamizning asosiy g'oyalaridir" [2]. Bundan shu narsani tushunishimiz mumkinki, muqaddimada Konstitutsiyaning asosiy g'oyalari keltirib o'tiladi. Bu preambulaning eng umumiy xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Huquqshunos olim O.T.Husanov asarida esa muqaddimaga oid quyidagi g'oya keltirib o'tiladi: "Barcha dunyo mamlakatlarining Konstitutsiyalarini ko'rsak, ularni yo xalq qabul qilgan, yoki xalq nomidan qabul qilingan, degan iboralarni uchratamiz. Masalan, AQSh Konstitutsiyasida: «Biz AQSh xalqi...», Germaniya Konstitutsiyada: «Mazkur asosiy qonunni nemis xalqi o'zini ta'sis hokimiyati kuchi bilan qabul qildi», Fransiya Konstitutsiyasida: «Fransuz xalqi Konstitutsiyaviy qonunni ma'qulladi», degan so'zlar bo'lsa, O'zbekiston Konstitutsiyasining muqaddimasida: «o'zining muxtor vakillari siyomosida O'zbekiston Respublikasining, mazkur Konstitutsiyani qabul qiladi», - deb qayd qilingan. Hamma konstitutsiyalarda uning yo xalq nomidan, yoki ularning muxtor vakillari tomonidan qabul qilinishi ko'rsatilar ekan, tabiiy holda u xalq manfaatini ifoda etishi kerak" [3]. Olimning ushbu fikridan preambula xalq tomonidan yozilishi, u xalqqa tegishli ekanligi anglashilmoqchi bo'lganini bilishimiz mumkin. Boshqacha aytganda, muqaddima xalqning bayonoti sifatida ko'riladi. Ammo yuqoridagi fikrlarning o'zi preambulaning huquqiy tabiatini bilish uchun yetarli emas. Shunday ekan quyida xorijiy manbalar asosida preambula yuzasidan turli olimlar fikrini tahlil qilgan holda preambulaning huquqiy tabiatini ochib berishga harakat qilamiz. Buni boshlashdan oldin esa yana bir muhim fikrimizni bayon qilib ketishim joiz. Bizningcha, milliy huquq tizimimizda preambulaning asosiy quyidagi turlari mavjud: 1) Konstitutsiya preambulasi; 2) Qonun preambulasi; 3) Boshqa normativ-huquqiy hujjatlar preambulasi. Bundan tashqari Oliy sud plenumi qarorlarida ham preambula qismi mavjud bo'ladi, ammo bunda biz faqat normativ-huquqiy hujjat doirasida yondashdik. Qolaversa, aynan bu turlarni alohida ajratishimizning sababi ularning turli xil huquqiy tabiatidadir. Bu fikrimizni aytganimiz boisi ushbu maqolada preambula huquqiy tabiatini ochishda fikrlarimiz Konstitutsiya preambulasi doirasida yuritiladi. Chunki bularning barchasi juda keng masalalardir va alohida yondashuvni talab qiladi. Ana endi preambulaning huquqiy tabiatlarini tahlil qilishni boshlasak, bo'ladi.



Birinchidan, preambula – Konstitutsiyaning kirish qismi hisoblanadi. Ayni xususiyat preambula mazmunini ham yaxshiroq tushunishimizga xizmat qiladi. Preambula Konstitutsiya qabul qilinishidagi tarixni aks ettirishi, millatning maqsadlari yoki asosiy g'oyalarni o'zida ifodalashi uning bu tabiatini asosini tashkil qiladi. Shu bois, preambula Konstitutsiyaning “eshigi” yoki “kirish nuqtasi” sifatida e'tirof etiladi.

Qolaversa, Konstitutsiyaga strukturaviy tuzilish jihatidan qarashimizning o'zi ham preambulaning ushbu xususiyatini yuzaga chiqaradi. Misol uchun O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi strukturasi quyidagicha: muqaddima (preambula), 6 bo'lim, 27 bob, 155 modda. Aynan shuning uchun ham sistematik tuzilish bo'lishi uchun ham muqaddima 1-moddadan ham oldin yozilgan va bu uning aynan biz gaplashayotgan xususiyatidir. Ayni paytda shu narsani ham ta'kidlab o'tishimiz lozimki, preambulani Konstitutsiyaning tarkibiy qismi sifatida e'tirof etish yoki alohida tarkibiy qism sifatida e'tirof etish bo'yicha ham olimlarda turli qarashlar mavjud. Ammo bu haqidagi bahs va munozaralarni uzoq davom ettirib o'tirmasdan preambulaning navbatdagi xususiyatiga o'tamiz.

Ikkinchidan, preambula Konstitutsiyaning maqsadi va uning ruhini aks ettiruvchi sifatidagi huquqiy tabiatga ham egadir [4]. Bunda “Konstitutsiya ruhi” tushunchasiga izoh berib o'tishimiz lozim. Mashhur huquqshunos olim Sharl Lui Monteskening “Qonunlar ruhi” asarida har bir davlat boshqaruv shakllarida o'ziga xos ruh bo'lishi va bu uning qonunlarida ham aks etishi yozilgan. Xuddi shunday Konstitutsiya ruhi ham mavjud bo'lib, bu ruh har bir Konstitutsiyani o'ziga xos qilib turadi. Bu esa albatta preambulada umumiy bildirib o'tiladi. Preambulani o'qish orqali Konstitutsiya ruhi haqida umumiy qarashlarimiz hosil bo'ladi. Masalan, demokratik ruhdagi Konstitutsiya, liberal ruhdagi Konstitutsiya, diniy ruhdagi Konstitutsiya kabilar. Bu haqida preambulani turli asoslarga ko'ra klassifikatsiyasiga oid qismda keyinroq gaplashamiz.

Konstitutsiyaning ushbu xususiyatiga oid navbatdagi muhim jihat bu ayni preambula ko'rsatib beradigan Konstitutsiya ruhi bundan keyingi normalar uchun qolip vazifasini o'tadi va normalarning ifoda tonini aks ettirib turadi. Boshqacha aytganda, preambulada belgilangan qolipdan Konstitutsiya ichidagi moddalar chetga chiqmasligi kerak.

Isroillik huquqshunos olim Liav Orgad o'z asarlarida zamonaviy Konstitutsiyalar preambula, odatda, umumiy tamoyillarni, maqsadlarni va huquqiy-falsafiy yo'nalishlarni ifodalovchi tarkibiy qism sifatida qaralishini aytib o'tgan [5]. Shuningdek, Konstitutsiyaning preambulasiga bevosita huquq normalari kiritilmaydi, preambula huquqiy tartibotning asosiy konseptual poydevorini belgilab beradi [6].

Uchinchidan, Ba'zi manbalarda ta'kidlanishicha, preambula nafaqat hujjatning kirish qismi, balki u Konstitutsiyaning o'ziga xosligini, ya'ni konstitutsion identitetni, shuningdek, ijtimoiy va siyosiy qadriyatlarni ifodalaydi. Preambulada xalqning tarixiy tajribasi, ijtimoiy birdamligi, mustaqillikka bo'lgan intilishi hamda adolat, erkinlik va tenglik kabi qadriyatlari mujassam bo'ladi. Shu jihatdan u nafaqat huquqiy matnning bir qismi, balki millatning ma'naviy qadriyatlari va umumiy g'oyalarning ifodasi sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu fikrni yanada chuqurroq anglash uchun ayrim huquqshunos olimlarning qarashlarini tahlil qilish o'rindir. Ularning ta'kidlashicha, preambula Konstitutsiyaning



manbalari hamda uning huquqiy va ma'naviy asoslarini ifodalovchi tarkibiy qism hisoblanadi [7]. Ya'ni preambula orqali Konstitutsiya qaysi ijtimoiy, siyosiy va falsafiy manbalarga tayanib yaratilgani, shuningdek, u qanday qadriyatlar tizimiga asoslanishi aniqlanadi. Boshqacha aytganda, preambula konstitutsiyaning ideologik ildizlari va me'yoriy tayanch nuqtalarini belgilab beradi. Har bir konstitutsiya ma'lum tarixiy jarayon, siyosiy ehtiyoj va ijtimoiy qadriyatlardan kelib chiqadi. Ana shu asoslar preambulada o'z ifodasini topadi. Unda xalqning tarixiy kurashi, milliy o'zlikni anglash jarayoni, mustaqillikka erishish, erkinlik, adolat va tenglikka bo'lgan intilishlari ifodalanadi. Shu bois, u Konstitutsiyaning "axloqiy poydevori" sifatida qaraladi. Bu yondashuv preambulaning xalq bayonoti nazariyasi bilan ham uyg'un bo'lib, unda preambula xalqning irodasi va umummilliy g'oyalarining ifodasi sifatida talqin etiladi.

Preambulaning ushbu huquqiy tabiatini yanada ochib berishda Anwar Hossain Chowdhury v. Bangladesh (1989) ishi alohida ahamiyatga ega. Mazkur ish — Bangladesh Oliy sudi tomonidan ko'rilgan "Sakkizinchi o'zgartirish ishi" (Eighth Amendment Case) — mamlakat Konstitutsiyasining asosiy tuzilmasi (basic structure) doktrinasini e'tirof etgan eng muhim qarorlardan biridir. Sud ushbu ishda Konstitutsiyaning Preambulasi faqat davlat tuzilmasining tashkiliy sxemasi emasligini, balki xalqning asrlar davomida orzu qilgan erkinlik, adolat va tenglik haqidagi umid va intilishlarining mujassami ekanligini ta'kidladi. Ya'ni sud xulosasiga ko'ra, preambula nafaqat davlat tuzilmasining chizmasi, balki xalqning asrlar davomida orzu qilib kelgan umid va intilishlarining ifodasidir [8].

To'rtinchidan, xorijiy huquqshunos olimlarning izlanishlari shuni ko'rsatadiki, preambula konstitutsiyaviy matnning talqinida, uning maqsad va ruhini aniqlashda beqiyos ahamiyat kasb etadi. Masalan, kanadalik taniqli huquqshunoslar Elmer Driedger va Ruth Sullivan o'z asarlarida ta'kidlaganidek, preambulaga ko'pincha hujjatning maqsadini ochib berish nuqtayi nazaridan yondashiladi [9]. Ularning fikricha, huquqiy matnni talqin qilishda preambulaning o'rni nafaqat deklarativ, balki qonun chiqaruvchining niyatini tushunishdagi yo'naltiruvchi vosita sifatida qaraladi. Bizningcha ushbu fikr juda ham o'rinli hamda preambulaning ushbu huquqiy tabiati uning amaliy ahamiyatidan darak berib turadi. Bunda preambula konstitutsiyaviy hujjatning teleologik (maqsadga yo'naltirilgan) sharhlanishida asosiy mezonlardan biri sifatida maydonga chiqadi desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Bundan tashqari, ayrim konstitutsiyashunoslar preambulani davlatning konstitutsiyaviy falsafasini ifodalovchi muvozanat tamoyili sifatida talqin qiladilar. Ularning fikricha, konstitutsiyaning preambulasida aks ettirilgan qadriyatlar turli ijtimoiy manfaatlar — masalan, hukumat tuzilishi, erkinlik, umumiy mudofaa, xalq farovonligi, adolat va ichki tinchlik — o'rtasidagi muvozanatni ifodalaydi. Bu g'oya quyidagicha ta'riflangan: "Konstitutsiyaning Preambulasi, agar u mazmun kasb etsa, hukumat tuzilishini, erkinlikni, umumiy mudofaani, xalq farovonligini, adolatni va ichki tinchlikni o'z ichiga olgan manfaatlar o'rtasidagi muvozanatni taqozo etadi"[10]. Ushbu fikr preambulaning konstitutsion muvozanat tamoyilini ifodalovchi manba ekanini anglatadi va bizningcha preambulaning hujjatning asosiy maqsadini ifodalovchi huquqiy tabiatining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ya'ni, u davlat hokimiyati va shaxs erkinliklari, ijtimoiy adolat va iqtisodiy farovonlik, tartib va erkinlik o'rtasida barqaror



muvozanatni saqlash zarurligini ko'rsatadi. Shu bois preambula faqat ramziy yoki siyosiy bayonot emas, balki konstitutsiyaning umumiy maqsadi va yo'nalishini belgilovchi huquqiy-falsafiy mezon sifatida e'tirof etilishi o'rinlidir.

Beshinchidan, preambula davlatning oliy maqsadlari, ideallari va intilishlarini umumlashtirib turuvchi sifatidagi huquqiy tabiatni ham mavjud. U Konstitutsiyaning kirish so'zi bo'lish bilan birga, davlatning qanday yo'nalishda rivojlanishi, qanday qadriyatlarni himoya qilishi va qanday ijtimoiy tuzumni barpo etishni maqsad qilganini belgilaydi. Preambula, davlatning "mafkuraviy deklaratsiyasi" bo'lib, unda davlat tuzumining falsafasi, xalqning tarixiy orzulari va kelajakdagi maqsadlari mujassam bo'ladi. Shuningdek, preambula davlatning normativ va siyosiy faoliyatiga yo'naltiruvchi dasturiy tamoyil vazifasini bajaradi. Unda ko'rsatilgan maqsadlar — adolat, erkinlik, tenglik, farovonlik va milliy birdamlik — davlat siyosatining mazmunini belgilovchi asosiy ideallar sifatida namoyon bo'ladi. Bu ideallar keyinchalik Konstitutsiyaning asosiy moddalarini orqali yuridik kuchga ega norma sifatida mustahkamlanadi. Preambulaning ushbu xususiyatining yana bir o'ziga xos jihati shundaki, preambula davlatning o'z xalqiga bergan va'dasi sifatida ham talqin etiladi. U xalqning tarixiy tajribasi va orzularini huquqiy hujjat shaklida mustahkamlab, davlatning asosiy yo'nalishlarini aniq ko'rsatadi. Shu bois, Preambula davlat hokimiyatining barcha tarmoqlari uchun yo'nalish beruvchi normativ mezon hisoblanadi va u orqali davlat o'zining siyosiy legitimligini asoslaydi.

Bundan tashqari, preambulaning huquqiy tabiati haqida gaplashar ekanmiz davlatimiz qonunchiligida muqaddimaga qanday yondashilganini ham tahlil qilishimiz zarur. "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida" gi qonuniga ilova qilingan Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini, shuningdek ularga ilova qilinadigan axborot-tahliliy materiallarni yuridik-texnik jihatdan rasmiylashtirishning yagona uslubiyoti 19-bandiga ko'ra loyiha uni qabul qilish sabablari va maqsadlarini tushuntirishdan iborat bo'lgan, loyiha boshlanishida joylashtiriladigan muqaddimaga ega bo'lishi mumkinligi mustahkamlangan. Ushbu bandni tahlil qiladigan bo'lsak, normada muqaddimaning quyidagi xususiyatlari e'tirof etilmoqda: 1) hujjat qabul qilinishiga sababni aks ettiradi; 2) hujjatni maqsadlarini tushuntiradi; 3) hujjat boshlanish qismida joylashtiriladi.

Ayni hujjatda muqaddima mazmuni bir necha xatboshidan iborat bo'lishi ham aytib o'tilgan va muqaddimaga nisbatan bir qator talablar ham qat'iy mustahkamlab qo'yilgan. Jumladan, Muqaddima:

- mustaqil normativ ko'rsatmalarni o'z ichiga olmasligi;
- moddalar va bandlarga bo'linmasligi;
- normativ-huquqiy hujjat qabul qilinishi munosabati bilan o'z kuchini yo'qotgan deb topilishi, o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi lozim bo'lgan boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga doir havolalarga ega bo'lmasligi;
- loyihada qo'llaniladigan asosiy tushunchalarning ahamiyatini o'z ichiga olmasligi;
- raqamlanmasligi kerak [11].

Bundan tashqari "Qonunlar loyihalarini tayyorlash va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga kiritish tartibi to'g'risida" gi qonunda ham



muqaddimaning huquqiy tabiatiga oid muhim normalar mavjud. Xususan, 19-moddasiga ko'ra: "Qonun loyihasi uning qabul qilinishi zaruriyati, sabablari va maqsadlariga oid tushuntirishni qamrab olgan, shuningdek uning mohiyatini va ahamiyatini ochib beradigan muqaddimaga ega bo'lishi mumkin". Ushbu norma mazmuniga ko'ra muqaddima quyidagi xususiyatlarga sifatida ko'rsatilmoqda:

- Qonun loyihasi qabul qilinish zaruriyatini tushuntirishlarni qamrab oluvchi qism;
- Qonun loyihasi qabul qilinishi sabablari va maqsadlariga oid tushuntirishni qamrab oluvchi qism;
- Qonun loyihasi mohiyatini va ahamiyatini ochib beruvchi qism.

Shuningdek, ushbu normani ham tahlil qilishimiz o'rinlidir: "O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga, O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy qonunlariga hamda qonunlariga o'zgartishlar, qo'shimchalar va tuzatishlar kiritish to'g'risidagi qonun loyihalari, shuningdek O'zbekiston Respublikasi qonunlarini yoki ularning ayrim normalarini o'z kuchini yo'qotgan deb topish to'g'risidagi qonun loyihalari, qoida tariqasida, ularning qabul qilinishi zaruriyati, sabablari va maqsadlariga oid tushuntirishni qamrab olgan, shuningdek ularning mohiyatini va ahamiyatini ochib beruvchi muqaddimaga ega bo'ladi". Bunda quyidagi qonun loyihalari muqaddimaga ega bo'lishi belgilab qo'yilmoqda:

- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o'zgartishlar, qo'shimchalar va tuzatishlar kiritish to'g'risidagi qonun loyihalari;
- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy qonunlariga o'zgartishlar, qo'shimchalar va tuzatishlar kiritish to'g'risidagi qonun loyihalari;
- O'zbekiston Respublikasi Qonunlariga o'zgartishlar, qo'shimchalar va tuzatishlar kiritish to'g'risidagi qonun loyihalari;
- O'zbekiston Respublikasi qonunlarini yoki ularning ayrim normalarini o'z kuchini yo'qotgan deb topish to'g'risidagi qonun loyihalari.

Biroq bunda "qoida tariqasida" jumlasini ishlatilgani qonunshunosning bu norma talabi qat'iy emasligini anglashyotganini bildiradi. Ya'ni ayni yuqorida sanab o'tilgan loyihalarda muqaddima bo'lishi tavsiya etiladi, ammo "bo'lishi shart" degan majburiy talab yo'q.

Ayni qonundagi yana bir muhim norma: "Huquqiy normalar muqaddimaga kiritilmaydi" [12]. Bu norma ham muqaddimaning yana bir muhim huquqiy tabiatini o'zida aks ettiradi. Ya'ni muqaddimaga huquq normasini kiritib bo'lmaydi! Yuqorida ham aynan shuning uchun muqaddimani xalqning bayonoti sifatida alohida yoritib o'tdik. Bunda bayon so'zining ma'nosini ham tahlil qilish fikrimizni aniqlashtiradi degan fikrdan maiz. Bayon (arab.) – 1) voqea, hodisa, fikr, mulohaza va shu kabilarning o'g'zaki yoki yozma ifodasi [13] Endi huquq normasi tushunchasiga to'xtaladigan bo'lsak, Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasining ensiklopedik lug'atida huquq normasi quyidagicha izohlanadi: davlat tomonidan o'rnatiladigan va ma'qullanadigan, muayyan shaklda ifodalangan, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan umummajburiy xulq-atvor qoidalari. Bu qoidalarni buzish yuridik javobgarlikka olib keladi [14]. Buni tahlil qiladigan bo'lsak, birinchidan, muqaddimada umummajburiy xulq-



atvor qoidalari emas, g'oya-prinsiplar belgilanadi, qolaversa bu natijasida yuridik javobgarlik kelib chiqmaydi.

Muqaddimaning huquqiy tabiatini yanada chuqur tahlil qilish uchun uning turli asoslarga ko'ra turlari (klassifikatsiyasini) ni o'rganib chiqishimiz zarur.

Germaniyalik huquqshunos olim Peter Haberle konstitutsiya preambulasini ishlatiladigan tiliga ko'ra uchga bo'ladi: 1) tantanali va bayramona tildagi preambula; 2) sodda va kundalik iboralar qo'llanilgan preambula hamda 3) murakkab, texnik va yuridik terminlardan foydalanilgan preambula. [15].

Amerikalik huquqshunos olim David. S esa Konstitutsiya preambulasini quyidagi uch asosiy turga ajratadi: liberal arxetip, davlatparast (statist) arxetip va universal arxetip [16].

Liberal arxetip odatda common law (umumiy huquq) an'alariga yaqin bo'lib, u davlat hokimiyatini cheklash, fuqarolarning salbiy va protsessual huquqlarini kafolatlash g'oyalariga asoslanadi. Bunday preambular davlat aralashuvini cheklash va shaxs erkinliklarini ta'minlashni asosiy maqsad sifatida ko'rsatadi.

Davlatparast arxetip esa civil law (fuqarolik huquqi) tizimiga mansub mamlakatlar uchun xos bo'lib, u davlatni milliy hamjamiyatning ifodachisi va jamoaviy maqsadlarga erishish vositasi sifatida talqin etadi. Ushbu turdagi preambular jamoaviy qadriyatlar, ijtimoiy birdamlik, davlatning faol roli, shuningdek, fuqarolarning davlat oldidagi burchlarini ta'kidlaydi.

Universal arxetip esa davlatning legitimligini ma'lum darajada xalqaro huquqiy tartibotning normativ kuchiga tayanadi. U transmilliy institutlar va xalqaro huquqiy majburiyatlarga sodiqlikni ifodalaydi hamda davlatni global hamjamiyatning ajralmas qismi sifatida talqin etadi.

Yana bir olim Liav organ o'z asarida preambulani uning kontenti (mazmuni) bo'yicha quyidagicha tasniflashini ko'rishimiz mumkin: 1) suverenitet e'lon qilishi; 2) tarixiy narrativlar; 3) oliy maqsadlar; 4) milliy identitet va 5) diniy ruhdagi [17].

Amerikalik tadqiqotchilar Tom Ginsburg, Nick Foti va Daniel Rockmore konstitutsiya preambulasining mazmuniy tarkibini Liav Orgad tomonidan ilgari surilgan toifalarga quyidagilarni ham qo'shishni taklif qiladi: 1) muayyan diniy shaxslar, 2) milliy tarixdagi muhim voqealar, shuningdek, 3) tashqi siyosatga oid tamoyillar [18].

Shuningdek, mualliflar ta'kidlaganidek, konstitutsiya preambulasini shakllantirishda muayyan tarixiy davrning faktlari va mafkuraviy g'oyalari alohida e'tiborga olinadi. Ya'ni, preambula mazmuni har bir davrning siyosiy, ijtimoiy va madaniy ruhini o'zida aks ettiradi.

Konstitutsiyalarni ularning qabul qilinish manbaiga ko'ra ikki guruhga ajratish mumkin:

a) xalq tomonidan qabul qilingan konstitutsiyalar preambulari, ya'ni konstitutsion jarayonning legitim asosini xalq irodasi tashkil etgan hujjatlar;

b) boshqa manbaa asosida qabul qilingan konstitutsiyalar, odatda mutlaq monarxlar tomonidan "hadya" qilingan oliy qonunlar bo'lib, ular ko'pincha preambulaga ega emas.[19]



Bunday hollarda konstitutsiyaning 1-moddasi ko'pincha kvazi-preambula (ya'ni, preambulaning o'rnini bosuvchi kirish qismi) sifatida xizmat qiladi. Masalan, 1958-yilgi Fransiya Konstitutsiyasida mazkur yondashuv kuzatiladi, bu esa preambulaning mavjud emasligi faqat mutlaq monarxiyalar uchun xos, degan fikrni rad etadi.[20] Shunga o'xshash tarzda, Saudiya Arabistoni Konstitutsiyasining 1-moddasi ham amalda preambulaning o'rnini egallagan bo'lib, davlatning asosiy ideologik va diniy yo'nalishlarini belgilab beradi [21].

XULOSA

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, Konstitutsiya preambulasining huquqiy tabiatini o'rganish nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham ega. Chunki preambula — bu shunchaki kirish so'zi emas, balki Konstitutsiyaning ruhini, maqsadini va yo'nalishini belgilovchi asosiy huquqiy-falsafiy institutdir. Preambula orqali xalqning tarixiy xotirasi, siyosiy qadriyatlari va milliy o'zligini ifodalovchi ideallar huquqiy shaklga keltiriladi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqadiki, preambulaning huquqiy tabiatini aniqlashda uni uch asosiy jihatdan ko'rish lozim: birinchidan, u Konstitutsiyaning tarkibiy qismi sifatida davlat va jamiyat o'rtasidagi aloqani mustahkamlaydi; ikkinchidan, u ideologik va ma'naviy yo'nalish beruvchi tamoyil sifatida Konstitutsiyaning "ruhi"ni shakllantiradi; uchinchidan, u normativ-huquqiy talqinlarda yo'naltiruvchi manba vazifasini bajaradi.

Xorijiy tajriba shuni ko'rsatadiki, har bir davlat preambulasiga o'z tarixiy va siyosiy qadriyatlarini singdirgan — masalan, Peter Häberle, David S. Law, Liav Orgad va Tom Ginsburgning tasniflari buni aniq ko'rsatadi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi ham mazkur jihatdan istisno emas — uning muqaddimasida xalq suvereniteti, inson huquqlariga sodiqlik, tinchlik va ijtimoiy adolat g'oyalari mujassamdir.

Kelgusida preambulaning huquqiy ahamiyatini yanada kuchaytirish uchun, uni konstitutsiyaviy talqinlarda faol qo'llash, sud amaliyotida yo'naltiruvchi manba sifatida e'tirof etish hamda konstitutsion tafakkurda preambulaning o'rnini va vazifasini yanada chuqurroq o'rganish zarur. Shu tarzda, preambula faqat ramziy matn emas, balki davlat va jamiyat o'rtasidagi konstitutsion kelishuvning huquqiy timsoli sifatida o'z haqiqiy mohiyatini namoyon etadi.

References:

1. Harper, D. (n.d.). *Etymology of preamble*. Online Etymology Dictionary. Retrieved October 13, 2025, from <https://www.etymonline.com/word/preamble>
2. Konstitutsiyaviy huquq [Matn]: darslik / Mualliflar jamoasi. T.: TDYU nashriyoti, 2024. - 800 b.
3. Husanov O.T. Konstitutsiyaviy huquq: darslik. To'ldirilgan va qayta ishlangan ikkinchi nashr. - Toshkent: Yuridik adabiyotlar publish, 2020. - 400 bet
4. Rao, V. V. (1951). THE PREAMBLE. *The Indian Journal of Political Science*, 12(2), 1–11. <http://www.jstor.org/stable/45405413>
5. Liav Orgad, *The Preamble in Constitutional Interpretation*, 8 Int'l J. Const. L. 714, 716 (2010).



6. *Reference re Manitoba Language Rights* (1985), 1 S.C.R. 721 (S.C.C.).
7. Shaha, Bilashi. (2025). The Preamble of the Constitution: An Analytical Study. *International Journal of Research and Innovation in Social Science*. IX. 1605-1613. 10.47772/IJRISS.2025.906000129
8. (Anwar Hossain Chowdhury v. Bangladesh, 1989)
9. See Ruth Sullivan, *Sullivan on the Construction of Statutes*, 6th ed (Markham, ON: LexisNexis, 2014) at 448 [Sullivan, *Construction of Statutes*] (previous editions published under the title *Sullivan and Driedger on the Construction of Statutes*); Ruth Sullivan, *Statutory Interpretation*, 2nd ed (Toronto: Irwin Law, 2007) at 138. See also Pierre-André Côté, Stéphane Beaulac & Mathieu Devinat, *The Interpretation of Legislation in Canada*, 4th ed (Toronto: Carswell, 2011) at 65; Kent Roach, "The Uses and Audiences of **Preambles** in Legislation" (2001) 47:1 McGill LJ 129; Danielle Pinard, "Les énoncés de fait du législateur et le contrôle judiciaire de constitutionnalité au Canada : de l'utilisation des préambules et autres dispositions non normatives des lois" (2008) 24:1 NJCL 27.
10. Durden, S. M. (2011). *Law as faith: The personal and unconstitutional journey from rule of law to law of rulism*. *Appalachian Journal of Law*, 11(1), 71–120 <https://advance.lexis.com/api/document?collection=analytical-materials&id=urn:contentItem:552D-B180-02C9-K007-00000-00&context=1519360>
11. <https://lex.uz/docs/-5378966#-5381443> – “Normativ-huquqiy hujjatlar to`g`risida” gi qonun
12. <https://lex.uz/docs/-1069260> – “Qonunlar loyihalarini tayyorlash va o`zbekiston respublikasi oliy majlisining qonunchilik palatasiga kiritish tartibi to`g`risida” gi qonun
13. O`zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. (n.d.). *O`zbekiston Milliy Ensiklopediyasi – B harfi*. Davlat Ilmiy Nashriyoti.
14. <https://lex.uz/dictionary?word=XVQYK%20HOPMAJAPU>
15. Frosini, *Op.cit.* p. 47.
16. David S. Law “Constitutional Archetypes.” *Tex. L. Rev.* 95 (2016) p. 153.
17. Liav Orgad, The Preamble in constitutional interpretation, *I.CON* (2010). Vol. 8 No. 4, p. 716-718.
18. Tom Ginsburg, Nick Foti, and Daniel Rockmore, “We the Peoples”: The Global Origins of Constitutional Preambles, 46 *Geo. Wash. Int'l L*
19. Baghirov, Siyavush. (2024). THE OBJECTIVES OF THE PREAMBLES OF CONSTITUTIONS AND THEIR LEGITIMACY PROBLEMS. 10.13140/RG.2.2.14431.27040.
20. Granger M. The Preamble(s) of the French Constitution: Content, Status, Uses and Amendment. *Acta Juridica Hungarica*. 52, No 1, 2011, p. 3
21. The Constitution of the Saudi Arabia (1992). URL: <https://www.legal-tools.org/doc/8942f2/pdf/> (retrieved 25 Aug 2024).